

## ASHTARXONIY MALIKA ZUHROBEGIM – TADBIRKOR AYOL SIFATIDA

**B.N. Mirzayev**

*Qarshi DU tadqiqotchisi, University of Business and Science Toshkent filiali  
Ijtimoiy-gumanitar va tillar kafedrası dotsenti vazifasini bajaruvchisi,  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**Annotatsiya.** Ashtarxoniylar sulolasi boshqaruvida malikalarning oqilona tadbiri va shahzodalarga bergan tarbiyasi muhim o'rin tutgan. Maqolada Xon avlodiga mansub bo'lgan Zuhrobegimning o'z davridagi diniy, dunyoviy ilmlardan xabardor bo'lganligi hamda mamlakatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida faol ishtirok etgan fozila ayollardan biri ekanligi haqida yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** sulolaviy nikohlar, Temuriylar, “Humoyunnoma”, Shayboniyxon, Ashtarxoniylar, legitimlik.

**Аннотация.** Мудрое управление царицами и воспитание принцев сыграли важную роль в правлении династии Аштарского ханства. В статье подчеркивается, что Зухробегим, происходившая из ханской династии, была знатоком религиозных и светских наук своего времени и была одной из добродетельных женщин, активно участвовавших в политической, общественной и культурной жизни страны.

**Ключевые слова:** династические браки, темуриды, “Хумоюннаме”, шейбаниды, аштарханиды, легитимность.

**Annotation.** The wise management of the queens and the education of the princes played an important role in the rule of the Ashtar Khanate dynasty. The article emphasizes that Zuhrobegim, who came from the khan dynasty, was an expert in the religious and secular sciences of her time and was one of the virtuous women who actively participated in the political, social and cultural life of the country.

**Keywords:** dynastic marriages, Temurids, “Humoyunname”, Shaybanids, Ashtarkhanids, legitimacy.

## KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Mustaqillik yillarida vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada ortib bormoqda. Zero, buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishni talab etmoqda [1]. Shundan kelib chiqib, davlat boshqaruvida ayollarning har jihatdan muhim o'rin tutishi va ayollar mayda va yirik

mulklarga ega bo'lib, qonuniy asosda qurultoylarda, muhim davlat qarorlarini qabul qilishda ishtirok etganliklarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. [2, 139.].

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ METHODS)**

Ashtarxoniylar sulolasi boshqaruvi davri (1601-1756) davlatchiligimiz tarixida alohida o'rin egallaydi. A.Ziyo "Silsilot as salotin" asarida "urus (nomila) mashhur nasroniylar bosqini dastidan (qochib) Yormuhammad farzandlari Joni Muhammad sulton, Abbos sulton, Tursun Muhammad sulton, Pir Muhammad sulton va ahli ayoli bilan Movarounnahrda kelgan"ligini yozadi [3, 286].

Ashtarxoniylar sulolasi boshqaruvi davri (1601-1756 yy) Jo'jixon naslidan bo'lib, XIV asrning 80-yillaridan boshlab Ashtarxon (Hoji Tarxon, Astraxan) va uning atrofidagi yerlar va xalqlar ustidan hukmronlik qilgan. 1556-yilda Rusiya Astraxanni bosib olgach, ashtarxoniylardan Yormuhammadxon oila a'zolari va qarindosh-urug'i bilan Buxoroga keladi. Urug'ning eng yirik vakili bo'lgan Yormuhammad va uning yaqinlari Buxoro xonligi hududlariga kirib kelgan davrdan boshlab, bu yerlarda mustahkam o'rnashish maqsadida mahalliy aslzodalar bilan quda - andachilik rishtalarini bog'lashga kirishgan.

#### **NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)**

Turkiy xalqlar ayollariga xos bo'lgan xislat va ma'suliyat naslu avlodni farovon jamiyatda yashashi va ular mavqeini saqlashdan iborat bo'lgan. Shu o'rinda bir jihatga e'tibor qaratish lozim, nasl aslligini saqlashda nikoh masalalari jiddiy e'tibor talab qilgan. Ashtarxoniylar bu masalaga davlat siyosati darajasida yondoshganligi ular hokimiyatini tarix sahnasiga olib chiqdi.

Astraxan tomonidan kirib kelgan ashtarxoniylarning yoshi ulug'i bo'lgan Yormuhammadxon Buxoroga kelib, shayboniy Iskandarxon (Minyonqol hukmdori)ning qizi Ma'suma sulton xonimga uylanadi. Iskandarxon jo'ybor shayxlari bilan yaxshi munosabatda bo'lganligi sababli bevosita, Yormuhammadxonning ham Buxoro amiru amaldorlari va zodogon tabaqalari orasida tanilishiga ta'sir ko'rsatdi.

Yormuhammad xonlik hayotida ta'sir kuchiga ega bo'lgan oila vakillari bilan ham nikoh munosabatalarini o'rnatdi. Shoh begim va Shayx begim degan ayollar shunday ayollardan bo'lgan. Shoh begim (taniqli Hoja Mir Haydar avlodidan bo'lib) bilan nikohdan ashtarxoniylarning mavqeini mustahkamlashda xizmat ko'rsatgan farzandlar: Muhammad sulton, Rahimquli sultonlar dunyoga kelgan. Buxoro xonligida urug'larning ham ta'siri kuchli bo'lganligi ma'lum. Shayx begim o'zbeklarning qo'ng'iroq urug'idan bo'lib, bu nikohdan Malik sulton, Tursun Muhammad sultonlar dunyoga kelgan[4].

Yormuhammadning nikohiga kiritgan ayollari orasida Ma'suma sulton xonimning obro'si baland edi, u Iskandarning qizi bo'lib, bu nikohdan yangi sulola vakillarining

yangi avlodi Joni Muhammad, Abbos sulton va Oysha sulton xonim, Munida xonim degan farzandlar dunyoga keladi [5, 111]. Joni Muhammad shayboniyzoda tog'alarining ta'sirida voyaga yetadi. Bu farzandlardan eng to'ng'ichi Joni Muhammad bo'lib, o'rta asrlar tarixidan ma'lumki, to'ng'ich farzandning boshqa farzandlarga nisbatan vakolati kengroq bo'lgan.

Yormuhammadxon bilan shayboniyzoda Ma'suma sulton xonimning to'ng'ich farzandi bo'lgan Joni Muhammad Buxoro xoni Abdullaxon singlisi Zuhrobegim bilan turmush quradi. Yangi sulolaning hokimiyatga olib chiquvchi shahzodalar Dinmuhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammad [6, 73] va Alim Muhammadlar tug'iladi. Shuningdek, ularning Ajab xonim va Ammaxonim ismli qiz farzandlari bo'lib, ular malikalar qatorida o'rin egallaydi [5, 117].

Ajab xonim Zuhrobegimning to'ng'ich qizi bo'lib, uni mahalliy zodogonlardan Abduxoja bilan turmush qurgan. Aynan shu shaxs ashtarxoniylarni hokimiyatga olib kelishini ta'minlashda moliyaviy yordam ko'rsatganligini manbalarda qayd etiladi. Ularning nikohidan Ibodulla xoja degan farzand dunyoga kelgan. Ajabxonim Abduxojaning vafotidan keyin, o'rta asr taomiliga ko'ra, shahzoda Abdulaziz sultonga turmushga chiqqanligi xususida ma'lumot mavjud.

Zuhrobegimning ikkinchi qizi Ammaxonim bo'lib, u Tursun sulton xoja bilan nikohda bo'lgan. Tursun sulton xojaning vafotidan keyin u Toyibxoja binni Kalonxuja jo'yboriga turmushga chiqqan. O'rta asr jamiyatida ayollarni ta'minotsiz qoldirmaslik maqsadida beva qolgan ayolni boshqa bilan nikohga kirishiga ruxsat etilgan.

Xon avlodiga mansub bo'lgan Zuhrobegim haramdagi barcha ayollardan farq qilib, o'z davridagi diniy, dunyoviy ilmlardan xabardor bo'lgan hamda mamlakatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida faol ishtirok etgan fozila ayollardan biri sanalganligi shubhasiz. Islom dinida ayol kishi erkaklar bilan ta'lim olish va dunyo qarashini kengaytirishda teng huquqqa ega bo'lganligini hisobga olganda [7, 52], Zuhrobegim bilimli, did-farosatli, tadbirkor ayol bo'lgan deyish mumkin bo'ladi. "Qur'oni Karim"da bay'at qilish huquqi erkaklar bilan bir qatorda ayollarga ham berilganligi ma'lum. Islomda davlat rahbarini saylash, unga itoat etishga ahdlashish "bay'at" deyilgan. Oqila, zukko bu ashtarxoni xonim bay'at yig'inlarida doimo ishtirok etgan va farzandlarini davlat boshqaruvchisi qilib tarbiyalagan. Uning farzandlari mamlakatning yetakchi hududlarini boshqarib turgan. Zuhrobegim ularga doimo dono maslahatlari bilan yordam berib turgan. Shuning uchun uning bir necha farzandlari va nabiralari ketma-ket Buxoro taxtini uzoq boshqarib turishga muvaffaq bo'lgan.

O'rta asrlar jamiyatida Payg'ambar avlodlarining vakillari bo'lgan sayidlar uchli ta'sirga ega bo'lib, juda ko'p masalalar ular maslahatlari bilan amalga oshirilgan. Hattoki,

davlat boshqaruvida amal va mansablarga kimsalarni tayin etish masalalari ham ular ishtirokida hal etilgan. Zuhrobegimning to'ng'ich farzandi Dinmuhammadxon sayidlar xonadonidan bo'lgan imom Rizo avlodlarining boshlig'i Mirzo Abu Tolibning qizi Shahribonu begimga uylantirilgan [8]. Ba'zi manbalarda bu ayolning nomi Bonu begim deb ham keltiriladi [9]. Nikoh munosabatlari Shahribonu begimning ikkinchi farzandi Boqi Muhammadxonning 1601-1606 yillarda Buxoro xonligi taxtiga kelishini va xonlikning shimoliy chegaralarini ko'chmanchi qabilalardan himoya qilishiga qaratilishi va mazkur yillar Buxoro xonligi taxtida ashtarxoniylar sulolasining rasmiy boshqaruvi boshlanganligi bilan izohlash mumkin.

Boqi Muhammadxonning vafotidan keyin hokimiyatga Vali Muhammadxon (1607-1711yy) keladi. Zuhrobegim valiahd shahzodalarga tarbiyasida jiddiy e'tibor qaratib kelgan.

Vali Muhammadxon Buxoro taxtini egallagandan keyin 1598-1628 yillarda hukmronlik qilgan qozoq sultoni Eshim sultonning qizi Oyxonimga uylangan. Vali Muhammadxon o'ldirilgan keyin Oyxonimning shar'iy iddasi (kamida uch oy) tugagach, Imomqulixon ham aynan shu ayolga uylangan. Bunday nikohga kirishishning birinchi jihati Oyxonimning oqila va go'zalligi bo'lsa, ikkinchi jihati shimoliy chegara sarhadlaridagi tinchlikni saqlashga qaratilganligi edi.

Zuhrobegim sulolaning davomiyligini ta'minlash maqsadida nabiralarining ta'lim – tarbiyasida sobit turganligi yuqorida ko'rsatib o'tildi. Fikrimizcha, saltanatni uzoq muddat sulola qo'lida mustahkam tutib turilishini ta'minlagan bo'lishi mumkin.

### **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)**

Ma'lumki, shayboniyxonlar davridan an'ana sifatida o'tib kelayotgan qozoq sultonlari bilan quda - andachilik rishtalari davom etib kelmoqda edi. Shayboniylar davrida qozoq sultoni Burunduqxonning qizi Mixr sulton xonimni Samarqand shahriga kelin qilib olib kelingan [10,354]. Uning nomi Samarqand tarixiga zamonasining eng mulkdor ayoli sifatida kirdi.

Mazkur an'ana Ashtarxoniylar sulolasi vakillari davrida ham davom ettirilgan. Shu o'rinda, yuksak e'tiborga sazovor bo'lgan Oyxonim ismli go'zal qozoq ayoli haqida to'xtalib o'tish joiz.

Ma'lumot o'rnida, Oyxonim 1598-1628 yillarda hukmronlik qilgan qozoq sultoni Eshim sultonning qizi bo'lgan [5,117]. Barcha zamonlarda bo'lgani kabi, farzandlarga chiroyli ism tanlash muhim sanalgan. Musulmonlarda tabiatan o'yning chiqishi va to'lishi yangi sahifalarni ochishga xizmat qilganligini hisobga olsak, ismlarga "oy" qo'shimchasini qo'shib aytish xayrli hisoblangan. Shu jihatdan, Oyxonim ismi sara ismlar sifatida qadrlangan bo'lishi tabiiy. "Xonim" so'zi qadimgi turk-mo'g'ul xalqlarining

aslzoda ayoliga yoki qiziga tegishli bo'lgan qo'shimcha sifatida ishlatilgan. O'tkir zehnli, husni latofatda tengi yo'q bo'lgan Oyxonim qozoq sultonlari va o'zbek xonlarini birday o'ziga rom qilib kelgan. Vali Muhammadxon Buxoro taxtini egallagandan keyin Oyxonimga uylangan va u haramdagi eng suyakli ayol bo'lgan. Vali Muhammadxon ustidan g'alaba qilgan Imomqulixon Vali Muhammadxon o'ldirilgan keyin Oyxonimning shar'iy iddasi (kamida uch oy) tugagach, unga uylanadi. Bu nikoh birinchidan, Oyxonimning oqila va go'zalligiga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi jihati shimoliy chegara sarhadlaridagi tinchlikni saqlash muddosi bo'lganligini ko'rsatadi.

Dinmuhammadxonning Zubayda bonu va Shamsiya bonu ismli qizlari bo'lib, ular Buxoro xoni Imomqulixon va Nadr Muhammadxonlarning onasi boshqa singillari bo'lgan. Afsuski, ular shaxsi haqidagi ma'lumotlar juda kam. Uzuq-yuluq ma'lumotlarga ko'ra, Imomqulixonning kichik singlisi Shamsiya bonu jo'ybor hojilardan Tojiddinga turmushga chiqqanligi va Imomqulixon unga murid bo'lganligi haqida so'z yuritilgan [4]. Yozma manbalar hoji Tojiddinni katta mulk egasi bo'lganligi va o'z zamonasining tib ilmini yaxshi egallagan yetuk kishisi bo'lganligini ma'lum qiladi. Nadr Muhammadxonning Zubayda bonu ismli singlisi Poyanda Muhammad sultonga turmushga chiqqan. Poyanda Muhammad sultonning Nadr Muhammad bilan munosabatlari mustahkam bo'lgan va unga Qunduz viloyati hokimligi boshqaruvi berilgan [15, 53-54].

Qizig'i shundaki, nikohdan faqat shahzodalargina emas, balki zamonasining eng yetuk avlodlari ham dunyoga kelgan. Poyanda Muhammad va Zubayda bonudan tug'ilgan Muhammad sulton Hoji Mir Muhammad Salimning bobosi edi. Hoji Mir Muhammad Salim "Silsilot us salotin" (Podshohlar sisilasi) asari muallifi hisoblanadi [11].

Ashtarxoniylar xonimlar orasida Shamsiya bonu xonim haqidagi yana bir ma'lumot uchraydi. Bu yuqorida tilga olingan Shamsiya bonu xonim emas, balki unga ammasining nomi havas qilib qo'yilgan ismlardan bo'lishi mumkin (xalqimizning havas qilganlarga qarab ism qo'yish odatlari mavjud) [12, 40-42].

Ashtarxoniylar hayotida mulkdor ayollarning alohida o'rini bo'lganligini anglatadi. Erkaklar bilan bir qatorda ayollar ham vaqf mulklariga egalik qilgan bo'lib, yirik yer maydonlari, bir qancha madrasa va qator do'kon egasi hisoblangan Shamsiya bonu shunday tadbirkor ayollardan biri bo'lganligini ko'rsatadi [10, 354].

#### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**

Umuman olganda, ayol faqat nikoh vositachisi emas balki, mulkiy munosabatlarini harakatga keltiruvchi kuch sifatida ham o'zini namoyish etganligini ko'rish mumkin. Tarixiy hujjatlarda Ashtarxoniylar davri mulkdor xonimlari haqida ma'lumotlar saqlanadi. Bu hujjatlar asosan boshqa davrlarga nisbatan tinch davr sifatida qaralgan Imomqulixon davriga to'g'ri keladi. Nodir devonbegi tog'ayi (Imomqulixonning tog'asi bo'lganligidan

tog‘ayi deb yuritilgan) ning qizi Og‘ajon bibiga tegishli bo‘lgan bir nechta hujjatlar saqlanib qolingan [13, 34]. 637 tanob yerga egalik qilgan ushbu mulk egasining yana boshqa mulklari haqida ham mavjud bo‘lgani ma‘lum bo‘ladi. Ushbu xonimlar ilmu ma‘rifatga homiylik qilganlar qatorida tarixda o‘z nomlarini qoldirgan [14]liklari diqqatga sazovordir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, turkiy xalqlar boshqaruvida ayollar muhim o‘rin egallagan. Sulolalar o‘rtasida ittifoqchilik ishlari ularning ishtirokidagi nikoh rishtalari bilan mustahkamlangan. Nikoh rishtalari diniy va chegara majorolarini hal etishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Yana bir muhim jihat shundaki, hokimiyatga kelishning qonuniy asosi da‘vogar sulolaning hokimiyat tepasidagi sulola bilan nikoh vositasida ta‘minlagan. Nikoh munosabatlari jamiyatda oilani shakllantiribgina qolmasdan, balki kuchli davlatlarni tarix sahnasiga olib chiqargan muhim omil sifatida ahamiyatga ega ekanligini e‘tirof etish lozim.

Ashtarxoniylar malikalarning oqilona tadbiri va shahzodalarga bergan tarbiyasi tufayli ashtarxoniylar sulola boshqaruvini bir yarim asr davomida saqlab turishiga xizmat qilgan.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Taraqqiyot yo‘limizning shiddati oshaveradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasidan. // Xalq so‘zi gazetasi. 2018-yil 28-dekabr.
2. Sangirova D. Ashtarxoniylar xonimlari tarix sahnasida. / Tarih Sahnesinde Türk Dünyası Kadını Uluslararası Sempozyumu /Turk Dunyosi Ayollari Tarix Sahnasida Ellararo Ilmiy Yig‘ini / The International Symposium Women of the Turkic World at the Stage of History. 22-23 Haziran 2023, İzmir. P. 149-156. <https://www.academia.edu>
3. Азамат, Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимдан Россия босқини даврига қадар. Тошкент: Шарқ, 2001.
4. Сангирова Д.Х. Аштархоний хонимларнинг давлат бошқарувидаги ўрни //Шарқшунослик. 2017, №1. – Б. 88-96. / <https://www.wikiwand.com/uz>
5. Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме. (Перевод с таджикского с примечаниями А. А. Семенова). Ташкент: Издательство АН УзССР Р.Г.Мукминова, 1966.
6. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Иймон. Тошкент: Sharq. 2010.



7. Муким-ханская история. (Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели профессора А.А. Семенова). Ташкент: Изд-во АН УзССР. 1956. / Сангирова Д., Мирзаева Н. Аштархоний хонимлар// “Тарих ва ҳозирги замон” республика илмий амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2017. – Б. 115.
8. Анке фон Кюлеьген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). Алматы: Издательство “Дайк-Пресс”, 2004. – 516 с. / Qodirova L.B., Jo'raboyev Sh. Xonliklar davri nikoh munosabatlari / Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№10 (81), 2021. – 337-341.
9. Мукминова Р.Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. По материалам «Вакф-наме». Ташкент: Фан. 1966.
10. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература XVI –XVIII вв. (Письменные памятники). Ташкент: Фан. 1985. Б. 101-110; Ахмедов Б.А. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. Тошкент: Фан. 1992. Б. 201-204.
11. Бегматов Э. Исмларнинг сирли олами. Тошкент: Ўзбекистон. История Узбекистана. (1993). XVI первая половина XIX века. Т.III. Ташкент: Фан. 2014.
12. Сангирова Д.Х. “Архив ҳужжатларида аёлларнинг мулкка эгалик қилиш масаласи”. “Ўзбекистонда архив соҳаси ривожланиши истокболлари ва илмий-амалий тадқиқотлар” мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман мақолалари тўплами. 2020-йил 15 май. Тошкент. 32-34 с.
13. Ўзбекистон Миллий Архиви, Ф. И- 323, 1 рўйхат, й.ж. 923/4.
14. Бобожонов Ш.У. Бухорода ҳукмдорларни дафн этиш анъанаси. Монография. – Тошкент, “Pages Print”, 2024.